IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
**Volume 22 Issue 01 IYUN 2026**

# MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTASINI (CBDC) JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

**Raxmatov Azizbek Xusan o'g'li**
O'zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi magistranti
azizbekrakhmatov.27@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada markaziy bank raqamli valyutasini (CBDC) joriy etishning nazariy asoslari, xalqaro tajribasi va O'zbekiston sharoitidagi istiqbollari tahlil qilinadi. Raqamli to'lovlar infratuzilmasining kengayishi, bank kartalari va masofaviy xizmatlardan foydalanishning ortishi, universal QR-kod standartlarini joriy etish rejalari CBDC uchun muhim texnologik asos yaratmoqda. Maqolada CBDCning to'lov tizimlari samaradorligi, moliyaviy inklyuziya, pul-kredit siyosati transmissiyasi va moliyaviy barqarorlikka ta'siri ilmiy manbalar va so'nggi statistik ma'lumotlar asosida yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** markaziy bank raqamli valyutasi, CBDC, raqamli so'm, to'lov tizimlari, moliyaviy inklyuziya, pul-kredit siyosati, raqamli iqtisodiyot.

**Abstract**. This article analyzes the theoretical foundations, international experience and prospects for introducing a central bank digital currency (CBDC) in Uzbekistan. The expansion of digital payment infrastructure, the growth of bank card usage and remote banking services, and the planned introduction of universal QR-code standards create an important technological basis for CBDC. The article examines the impact of CBDC on payment system efficiency, financial inclusion, monetary policy transmission and financial stability based on scientific sources and recent statistical data.

**Keywords**: central bank digital currency, CBDC, digital soum, payment systems, financial inclusion, monetary policy, digital economy.

## KIRISH

Jahon moliya tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari tezlashib borar ekan, markaziy banklar nafaqat an'anaviy pul-kredit siyosatini yurituvchi institut, balki raqamli to'lov infratuzilmasini rivojlantiruvchi strategik regulyator sifatida ham maydonga chiqmoqda. Markaziy bank raqamli valyutasi (Central Bank Digital Currency – CBDC) markaziy bank tomonidan chiqariladigan, milliy valyutaning raqamli shakli bo'lib, u naqd pul va bank hisobvaraqlarini to'ldiruvchi yangi to'lov vositasi sifatida qaraladi.

CBDCni joriy etish zarurati bir nechta omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, aholining kundalik to'lovlari tobora raqamli kanallarga o'tmoqda. Ikkinchidan, xususiy to'lov tizimlari va kriptoaktivlar kengaygani sari markaziy banklarning pul suverenitetini saqlash masalasi dolzarblashmoqda. Uchinchidan, davlat to'lovlari, ijtimoiy transfertlar va transchegaraviy hisob-kitoblarni tez, arzon va shaffof amalga oshirish ehtiyoji kuchaymoqda.

Atlantic Council ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda dunyo bo'yicha 137 ta mamlakat va valyuta ittifoqlari CBDCni o'rganmoqda, bu davlatlar jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 98 foizini tashkil etadi. Shuningdek, 72 ta mamlakat rivojlantirish, pilot yoki joriy etish bosqichida, 49 ta CBDC pilot loyihasi mavjud, 3 ta davlat esa milliy raqamli valyutani to'liq ishga tushirgan. BISning 2024-yilgi so'rovida esa 93 ta markaziy bankning 91 foizi chakana yoki ulgurji CBDC yo'nalishida tadqiqot olib borayotgani qayd etilgan.

O'zbekiston sharoitida CBDC istiqbollari to'lov tizimlarining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-sentabr holatiga mamlakatda

muomaladagi bank kartalari soni 62,3 mln donaga, o‘rnatilgan to‘lov terminallari 428,5 ming donaga, bankomat va infokiosklar 37,0 ming donaga yetgan. 2025-yil yanvar-avgust oylarida to‘lov terminallari orqali tushgan tushumlar 279 033,6 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekistonda raqamli to‘lov infratuzilmasi CBDCni bosqichma-bosqich sinovdan o‘tkazish uchun muhim asos shakllanganini ko‘rsatadi.

**Adabiyotlar sharhi**

Markaziy bank raqamli valyutasi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda CBDCning afzalliklari va xatarlariga turlicha yondashuvlar mavjud. Afroza Sultana tadqiqotida CBDC to‘lov tizimlari samaradorligini oshirish, soliq yig‘imlarini yaxshilash va noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni kuzatish imkoniyatlarini kengaytirishi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, muallif moliyaviy barqarorlik, bank disintermediatsiyasi, maxfiylik va kiberxavfsizlik masalalari ehtiyotkorlik bilan baholanishi zarurligini qayd etadi (Sultana, 2025).

Mallesha L. CBDCni joriy etish moliyaviy barqarorlik, pul-kredit siyosati va moliyaviy inklyuziyaga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatadi. Tadqiqotda xususiy virtual valyutalar va suveren raqamli valyutalar o‘rtasidagi huquqiy chegaralarni aniq belgilash CBDC muvaffaqiyatining muhim sharti sifatida ta’kidlangan (Mallesha, 2023).

Guley va Koldovskyi CBDCni markaziy banklar uchun innovatsion to‘lov vositasi sifatida tahlil qilib, uning pul-kredit siyosati transmissiya mexanizmini kuchaytirishi va moliyaviy integratsiyani oshirishi mumkinligini asoslaydi. Biroq chakana CBDC bank depozitlariga bosim o‘tkazishi sababli uning arxitekturasi bosqichma-bosqich va cheklovlar bilan loyihalanishi kerakligi qayd etiladi (Guley & Koldovskyi, 2023).

Tan tomonidan ishlab chiqilgan model CBDC rivojlanayotgan mamlakatlarda bank hisobvaraqlariga ega bo‘lmagan aholini moliyaviy tizimga jalb qilish imkonini berishini ko‘rsatadi. CBDC tranzaksiya ma’lumotlari kredit tarixini shakllantirishga xizmat qilsa, banklar kredit riskini yaxshiroq baholashi mumkin (Tan, 2023).

Shkliar CBDCni ishlab chiqishning asosiy sabablarini naqd pulsiz iqtisodiyotga o‘tish, pul yuvish va soliqdan bo‘yin tovlashga qarshi kurashish, xususiy raqamli valyutalar bilan raqobat va to‘lov sektoridagi texnologik rivojlanish bilan bog‘laydi. Muallif chakana va ulgurji CBDC modellari bir-biridan maqsadi, foydalanuvchisi va risklari bo‘yicha farqlanishini ta’kidlaydi (Shkliar, 2020).

Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, CBDC universal yechim emas, balki puxta texnik, huquqiy va institutsional tayyorgarlikni talab qiladigan kompleks moliyaviy innovatsiyadir. O‘zbekiston uchun CBDCni joriy etishdan oldin to‘lov infratuzilmasi, aholining raqamli savodxonligi, kiberxavfsizlik va tijorat banklari likvidligiga ta’sir masalalari chuqur tahlil qilinishi lozim.

**Asosiy qism**

CBDCning iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, u markaziy bank majburiyati hisoblanadi va milliy valyutaning raqamli shaklida muomalaga chiqariladi. U kriptoaktivlardan farqli ravishda markaziy bank tomonidan kafolatlanadi, qiymati milliy valyutaga bog‘langan bo‘ladi va qonuniy to‘lov vositasi maqomini olishi mumkin.

O‘zbekistonning raqamli to‘lov infratuzilmasi CBDC uchun muhim tayanch hisoblanadi. 2025-yil 1-sentabr holatiga bank kartalari sonining 62,3 mln donaga yetgani aholining raqamli to‘lov vositalaridan foydalanish darajasi kengayganini ko‘rsatadi. 428,5 mingta to‘lov terminali va 37,0 mingta bankomat hamda infokiosklar mavjudligi esa CBDC ekotizimini tijorat banklari va to‘lov tashkilotlari orqali tarqatish imkoniyatini oshiradi.

2025-yil yanvar-avgust oylarida to‘lov terminallari orqali 279,0 trln so‘mlik tushum qayd etilgani naqdsiz hisob-kitoblar hajmi sezilarli darajada ekanini ko‘rsatadi. CBDC ushbu jarayonni yanada tezlashtirishi, davlat budjeti to‘lovlari, kommunal to‘lovlar, soliqlar va ijtimoiy transfertlarni raqamli shaklda aniq manzilli va kuzatiladigan qilish imkonini berishi mumkin.

Markaziy bank tomonidan universal QR-kod standartlarini joriy etish rejalari ham CBDC uchun amaliy ahamiyatga ega. Yagona QR-standart to‘lov tizimlari o‘rtasidagi interoperabellikni kuchaytiradi, foydalanuvchi uchun to‘lov jarayonini soddalashtiradi va kichik biznes subyektlari uchun xarajatlarni kamaytiradi. Kelajakda raqamli so‘m ham aynan shunday universal to‘lov infratuzilmasi orqali aholiga qulay yetkazilishi mumkin.

CBDCni joriy etishda ikki pog‘onali model eng maqbul yo‘nalish sifatida baholanishi mumkin. Bunda Markaziy bank raqamli valyutani chiqaradi va hisob-kitob infratuzilmasini boshqaradi, tijorat banklari va litsenziyalangan to‘lov tashkilotlari esa raqamli hamyonlarni ochish, mijozlarni identifikatsiya qilish, servis ko‘rsatish va tranzaksiyalarni amalga oshirishda vositachi bo‘ladi. Bu model tijorat banklari depozit bazasiga keskin bosimni kamaytiradi.

CBDCning asosiy afzalliklaridan biri moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdir. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda bank hisobiga ega katta yoshli aholi ulushi 2011-yildagi 23 foizdan 2021-yilda 44 foizgacha oshgan. Shunga qaramay, ayrim hududlarda bank xizmatlariga kirish imkoniyati cheklangan. Offline ishlovchi raqamli hamyonlar va soddalashtirilgan identifikatsiya mexanizmlari qishloq joylarda CBDCdan foydalanishni kengaytirishi mumkin.

CBDC pul-kredit siyosati uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Raqamli valyuta orqali pul aylanish tezligi, tranzaksiya xarakteri va to‘lov oqimlari bo‘yicha umumlashtirilgan real vaqt ma’lumotlari shakllanishi mumkin. Bu Markaziy bankka inflyatsion bosim, likvidlik va to‘lov bozori tendensiyalarini tezroq baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi qat’iy himoya qilinishi shart.

CBDCning xatarlariga kiberhujumlar, texnik uzilishlar, foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlari himoyasi, tijorat banklaridan depozitlarning chiqib ketishi va pul yuvishga qarshi talablarni bajarish bilan bog‘liq masalalar kiradi. Shu sababli CBDCni bir yo‘la to‘liq joriy etish emas, balki tartibga soluvchi sandbox, cheklangan pilot, foydalanuvchi limiti, tranzaksiya limiti va bosqichma-bosqich kengaytirish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston uchun CBDC joriy etishning istiqbolli yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: davlat ijtimoiy to‘lovlarini raqamli so‘mda sinovdan o‘tkazish; kichik biznes uchun arzon QR-to‘lov ekotizimini yaratish; transchegaraviy pul o‘tkazmalarida Markaziy Osiyo davlatlari bilan pilot loyihalarni yo‘lga qo‘yish; banklararo hisob-kitoblarda ulgurji CBDCni sinash; kiberxavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha maxsus talablar ishlab chiqish.

**1-jadval.**
**CBDC joriy etish uchun asosiy statistik ko‘rsatkichlar va ularning amaliy ahamiyati**

| Ko‘rsatkichlar | So‘nggi ma’lumot | Manba | CBDC nuqtayi nazaridan izoh |
|---|---|---|---|
| CBDCni o‘rganayotgan mamlakatlar | 137 ta mamlakat va valyuta ittifoqlari | Atlantic Council, 2025 | CBDC masalasi global pul tizimining ustuvor yo‘nalishiga aylanganini ko‘rsatadi. |
| Ilg‘or bosqichdagi CBDC loyihalari | 72 ta mamlakat rivojlantirish, pilot yoki launch bosqichida | Atlantic Council, 2025 | O‘zbekiston uchun xalqaro pilotlardan dizayn va risklarni boshqarish bo‘yicha saboq olish muhim. |
| CBDC pilot loyihalari | 49 ta pilot loyiha | Atlantic Council, 2025 | CBDCni avval cheklangan pilot orqali sinash zarurligini ko‘rsatadi. |
| Markaziy banklar | 93 markaziy bankdan | BIS, 2025 | CBDC bo‘yicha |


| | | | |
|---|---|---|---|
| faolligi | 91 foizi CBDCni o‘rganmoqda | | tadqiqot olib borish markaziy banklar amaliyotida keng tarqalgan. |
| O‘zbekistonda bank kartalari | 62,3 mln dona | Markaziy bank, 01.09.2025 | Aholi raqamli to‘lov vositalaridan keng foydalanayotgani raqamli so‘m uchun texnologik bazani kuchaytiradi. |
| To‘lov terminallari | 428,5 ming dona | Markaziy bank, 01.09.2025 | Savdo va xizmat ko‘rsatishda CBDCni qabul qilish infratuzilmasini yaratish imkonini beradi. |
| To‘lov terminallari tushumlari | 279 033,6 mlrd so‘m (2025-yil yanvar-avgust) | Markaziy bank, 2025 | Naqdsiz to‘lovlar hajmi yuqori ekanini va raqamli hisob-kitoblarga talab mavjudligini ko‘rsatadi. |

***Manba:*** *Atlantic Council CBDC Tracker, BIS 2024-yilgi CBDC so‘rovi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil to‘lov tizimlari statistikasi asosida muallif tomonidan tuzildi.*

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil holatida dunyo mamlakatlarining katta qismi markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC)ni o‘rganish va joriy etish jarayonida faol ishtirok etmoqda. Xususan, CBDCni o‘rganayotgan mamlakatlar sonining yuqoriligi global moliya tizimida raqamlashtirish jarayonlari jadallashayotganini ko‘rsatadi. Bu esa an’anaviy to‘lov tizimlarini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, jadvalda ko‘rinib turibdiki, ko‘plab davlatlar CBDCni ishlab chiqish, sinovdan o‘tkazish va pilot loyihalar bosqichiga o‘tgan. Pilot loyihalar markaziy banklarga raqamli valyutaning amaliy samaradorligini baholash, texnik va huquqiy muammolarni aniqlash hamda aholining ushbu tizimga bo‘lgan munosabatini o‘rganish imkonini bermoqda. Ayrim mamlakatlarda esa CBDC to‘liq joriy qilinib, ichki to‘lov tizimlarida amaliy foydalanishga kiritilgan.

Mazkur ko‘rsatkichlar markaziy bank raqamli valyutalari kelajakda xalqaro moliya tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanish ehtimoli yuqori ekanligini ko‘rsatadi. CBDC joriy etilishi to‘lov tizimlari tezkorligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish hamda monetar siyosat samaradorligini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik, ma’lumotlarni himoya qilish va bank tizimi barqarorligini ta’minlash kabi masalalar markaziy banklar oldidagi asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.




**1-rasm. Jahon bo‘yicha CBDC loyihalari holati (2025-yil).**

***Manba:*** *Atlantic Council CBDC Tracker ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

Diagrammada 2025-yil holatiga ko‘ra jahonda markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC) bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyihalarning rivojlanish darajasi aks ettirilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoning aksariyat mamlakatlari CBDCni o‘rganish va tadqiq etish bosqichida bo‘lib, bu raqamli moliyaviy texnologiyalarga bo‘lgan qiziqishning keskin ortayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, ko‘plab davlatlarda CBDC loyihalari ishlab chiqish, sinovdan o‘tkazish va pilot dasturlar bosqichiga o‘tgan. Ayrim mamlakatlarda esa markaziy bank raqamli valyutasi to‘liq joriy etilib, amaliy muomalaga kiritilgan.

Mazkur holat global moliya tizimida raqamlashtirish jarayonlari jadallashayotganini ko‘rsatadi. CBDC loyihalarining rivojlanishi nafaqat to‘lov tizimlari samaradorligini oshirish, balki moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni qisqartirish hamda monetar siyosat samaradorligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, markaziy banklar tomonidan raqamli valyutalarni joriy etish jarayonida kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va bank tizimi barqarorligini saqlash kabi muhim masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Diagramma natijalari CBDC kelajakda xalqaro moliya tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanish ehtimoli yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

**Xulosa**

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Markaziy bank raqamli valyutasi O‘zbekiston to‘lov tizimlarini modernizatsiya qilish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va pul-kredit siyosati samaradorligini oshirishda istiqbolli vosita bo‘lishi mumkin. Biroq CBDCni joriy etish texnologik loyiha emas, balki huquqiy, institutsional, monetar va kiberxavfsizlik talablarini birlashtiruvchi kompleks islohotdir.

O‘zbekistonda 62,3 mln bank kartasi, 428,5 ming to‘lov terminali va 279,0 trln so‘mlik terminal tushumlari mavjudligi raqamli to‘lovlar bozori yetarlicha rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Bu raqamli so‘mni dastlab cheklangan pilot loyiha sifatida sinovdan o‘tkazish, natijalarni baholash va keyin bosqichma-bosqich kengaytirish imkonini beradi.

Maqola natijasida quyidagi takliflar ilgari suriladi: CBDC bo‘yicha milliy konsepsiya va huquqiy bazani ishlab chiqish; ikki pog‘onali model asosida tijorat banklari va to‘lov tashkilotlarini jarayonga jalb qilish; universal QR-kod va tezkor to‘lov tizimlari bilan integratsiyani ta’minlash; pilot loyihalarda foydalanuvchi va tranzaksiya limitlarini belgilash; shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi va kiberxavfsizlik bo‘yicha alohida standartlar joriy etish; aholining raqamli moliyaviy savodxonligini oshirish.

Umuman olganda, CBDCni ehtiyotkorlik bilan, bosqichma-bosqich va real iqtisodiy ehtiyojlardan kelib chiqib joriy etish O‘zbekiston moliya tizimining raqamli transformatsiyasini chuqurlashtiradi, to‘lovlar shaffofligini oshiradi va milliy pul tizimining raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

**Manbalar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To‘lov tizimining ko‘rsatkichlari. 2025-yil 1-sentabr holatiga ma’lumotlar. – Toshkent, 2025.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot 2024. – Toshkent, 2025.
3. Atlantic Council. Central Bank Digital Currency Tracker. – Washington, 2025.
4. Bank for International Settlements. Results of the 2024 BIS survey on central bank digital currencies and crypto. BIS Papers No. 159. – Basel, 2025.
5. World Bank. Global Findex Database: Financial Inclusion and Digital Payments. – Washington, 2021/2025.
6. Sultana A. Central Bank Digital Currency (CBDC) // International Journal of Finance & Banking Studies. – 2025.
7. Mallesha L. Central Bank Digital Currency (CBDC) and Its Potential Benefits and Challenges // GBS Impact: Journal of Multi Disciplinary Research. – 2023.
8. Guley A., Koldovskyi A. Digital Currencies of Central Banks (CBDC): Advantages and Disadvantages // Financial Markets, Institutions and Risks. – 2023.
9. Tan B. Central Bank Digital Currency and Financial Inclusion // IMF Working Papers. – 2023.
10. Shkliar A. The phenomenon of central banks’ digital currencies (CBDC): key attributes and implementation perspectives. – 2020.
11. Mohamed H. Implementing a Central Bank Issued Digital Currency with Economic Implications Considerations. – 2020.